



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Тошмуродов Шерзод Ғуломжонович**

*Самарқанд давлат университети “Бошланғич ва технологик таълим” кафедраси  
ассистенти*

### MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIGA TA'SIRI

**Annotatsiya** Milliy harakatli o'yinlar rolini muhimligi ular mavzusining mazmunini sinchiklab tahlil qilish va shunga muvofiq turli yoshdagi bolalar uchun tanlashni talab qiladi.

Har qanday milliy o'yin xoh ijodiy didaktik musiqani bo'ishi bolalarning atrof –muhitini bilishda o'ziga xos vosita bo'lib hisoblanadi.

**Kalit soʻzlar:** harakatli o'yin, milliy o'yin, shartli o'yin, milliy harakatli o'yinlar, diqqat, idrok etish, rivojlantirish, tafakkur, tushuncha, mo'ljal olish.

Milliy harakatli o'yinlar mazmunida bolalar dunyoqarashini kengaytiruvchi va tasavvurini aniqlashtiruvchi ko'plab bilish materiallari mavjud. Syujetli o'yinlar mavzusini odamlar hayoti tabiat hodisalari hayvonlar odatlariga oid ayrim epizodlar tashkil etadi. Bularning hammasi bolalar tomonidan o'ziga xos shartli o'yin shaklida aks ettiriladi (Xurmacha bog'i ,tez saflan, doira bo'ylab uzatish, gur-gur o'yini va boshqalar.) Biroq bola tashqi dunyoni tog'ri idrok qilish uchun o'yinning barcha shartlariga rioya qilgan holda obrazning to'g'ri xarakteristikasi va haqiqiyliigi, o'yin vaziyatini bilish zarur. Bu pedagogik tomondan o'yinni tushuntirishda emosional tarzda bayon etiladi.

Xalq o'yinlari buning ajoyib namunasi hisoblanadi. Ulardagi o'yin vaziyati bolalarni qiziqtiradi va tarbiyalaydi, ba'zi o'yinlarda uchraydigan bolalar yoki qahramonlari va ular harakatlarini bevosita harakatlaydi. (Lochin va kurk tovuq,



g'ozlar va oqqushlar jambil chambarakka yetib ol, kim ko'p yong'oq terib oladi, chordana qurib o'tirib to'pni boshdan oshirib uzatish). Syujetga ega bo'lmagan va faqat muayyan o'yin topshiriqlaridan tuzilgan o'yinlardan ham bolaning qobiliyatini, tafakkurini, mo'ljal olishni rivojlantirishga yordam beruvchi ko'plab materialni bilish mavjud Kim o'zar to'p qo'shishga, to'pni olib borish, to'pni ilib ol va boshqalar. Qoidalar tarbiyaviy ahamiyatga molik ular o'yinning borishini belgilaydi. Bolalar harakat faoliyatini, ularni xatti-harakati o'zaro munosabatlarini yo'lga soladi. Axloqiy-irodaviy sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bunda bola o'yinga tegishli rahbarlik qilinganda o'zida hoil qilingan sifatlarni namoyon qilmasdan turolmaydi. Masalan bolalar "Ayyor tulki" o'yinida faqat tulki "men shu yordamchi" deganidan so'ggina doiradan chiqib turli tomonga qochishlari mumkin. Bu qoida bolalarda diqqatni, o'zini tuta bilishni, mo'ljal olishni hosil qiladi, qoidalarni og'ishmay bajarishni, talab qilishni, maqsadga erishishda egoistik qarashlarni yengishga yordam beradi. "Qoida bola xatti-harakatini jamoa talabiga muvofiq boshqaradigan va yo'naltiradigan birinchi ijobiy tomoni hisoblanadi.

O'yinlarda teran hissiyotni, o'rtoqlik va mehr-muhabbatning dastlabki nishonlari paydo bo'ladi. Kichik guruhlarda foydaliroq bolalar tomonidan o'yin rivojlanishi davomida yuzaga keladigan majburiy javob harakati sifatida idrok qilinadi. (Quyunchalar ayiq paydo bo'lishi bilan butler orasiga qochib ketadilar., chumchuqlar avtomobil ko'rishlari bilan yo'ldan uchib ketadilar) Bolalar o'yin qoidalari bilan hali qoidalarni yaxshi anglamasdan, tushunmasdan turib hozirjavoblikka o'rganadilar. Bir tomondan o'yin syujetiga ko'ra (quyunchalar ayiqdan qo'rqadilar) ikkinchi tomondan signalga nisbatan hosil qilingan shartli refleksga ko'ra harakat qiladilar.

Dastlab bolalar ayrim vazifalarni tezroq bajarish paydo bo'lib qoidalarni unutib qo'yadilar. Bundan tashqari yutuqqa va bunga eng oson yo'l bilan erishishga intilish ham qoidani buzishga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida o'yinchilarda norozilik uyg'otadi, ziddiyat tug'diradi va bolalar o'rtasidagi munosabatni yomonlashtiradi.

Har bolaning o'yin qoidasini tushunib yetishi va unga rioya qilishda o'qituvchining talabi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Asta-sekin tarbiyaviy ta'sir qilish tufaylli bolalarning o'yin jarayonidagi munosabati o'zgarib boshlaydi. O'yin harakatlari va o'yin qoidalarini bir muncha aniq bajarishga intilish paydo bo'ladi. O'yin qoidalarini bajarmaslik sabablari ham o'zgaradi, endi bolalar ularni atayin emas, tasodifan buzadilar va shu zahoti yo'l qoyilgan xatolarni tuzatishga harakat qiladigan bo'ladilar.

Bolalarga qoidalarni ijtimoiy ahamiyatini anglashga sistemali chidam bilan tayyorlanadigan, o'z-o'zini tuta bilish, qat'iyatlik, iroda kabi yaxshi sifatlarni shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi. "Bola tomonidan asta-sekin o'zlashtiradigan, bunday hayotiy muhim axloqiy sifatlari bola shaxsining ichki nima'naviy mulkiga aylanadi. Bularning hammasi qonunlari o'yinlarning bolalarning axloqiy tarbiyalash ta'sirchan vositalarining biri sifatida belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'yin faoliyatida diqqatni, idrok etishni rivojlantirish mavjud tafakkur, tushuncha va mo'ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi. O'yinlar



ijodiy hayot, hayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalarning psixik jarayonlarini takomillashtirishda obrazli emotsional meodika katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarda qiziqish uyg'onadi, xayolik jalb qiladi. Qiyin xarakatlarni ijodiy bajarishga undaydi.

Shunday qilib milliy harakatli o'yinlarda mujassamlangan emotsional sog'lomlashtirish bilish va tarbiyaviy tomonlarining butun kompleksidan foydalanish bolalarni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda yordam beradi.

### **XURMACHA BOG'I**

**Pedagogik ahamiyati.** Chaqqonlik, tezkorlik, diqqatni rivojlantirish, nutq so'zlashish madaniyatini tarbiyalash.

**Pedagogik ahamiyati.** O'quvchilarda psixologik (diqqat, tezkor fikrlash, muloqot madaniyati) va psixofiziologik (abjirlik, tezkorlik) xususiyatlarini shakllantirish.

**Tayyorgarlik ko'rish.** O'yin sport zalida yoki maydonchasida o'tkaziladi. O'yinchilar qo'l ushlab bir-birlariga qarab ikkita doira bo'lib va ikki qatorga bo'linadilar. Har bir doirada 12-14 o'quvchi ishtirokchi bo'ladi.

**O'yin tavsifi.** Bolalar doira bo'lib qarama-qarshi tomonga aylanib yuradilar va quyidagi so'zlarni aytib yuradilar.

Xurmacha bog'i, Xolamning ishi bor,

To'kildi yog'i, Qulog'ida xoli bor,

To'kilsa mayli. Xola-xola xash tu-tu

Oxirgi so'zni aytib berishlari bilan o'tirib olishlari kerak. Kim oxirida qolsa yoki o'tirsa, ichkaridagi doira o'rtasiga turib birorta topshiriqni bajaradi: ashula, she'r aytib beradi, o'ynaydi va x.k yutqizgan bola topshiriqni bajargandan so'ng o'yin yana davom etadi.

**O'yin qoidasi:** Agarda o'quvchilar ko'p bo'lsa bir nechta doira hosil qilishlari mumkin.

2. Doira bo'lsa harakatlanganda qo'lini qo'yib yuborish man etiladi.

### **“ KO'Z BOYLAG'ICH “ O'YINI**

**Pedagogik vazifasi.** O'yinda sezgirlik, diqqat-e'tiborni tarbiyalash.

**Psixologik ahamiyati.** O'quvchilarda psixologik diqqat, tezkor fikrlash va psixofiziologik (sezgirlik, mantiqiy fikrlash, ) xususiyatlarini shakllantirish.

**Tayyorgarlik ko'rish.** O'yin sport zaliga yoki maydonchasida o'tkaziladi. O'quvchilar davra qurib o'tiradilar. O'yinchilardan buiri o'yinboshi qilib tayinlanadi va doiraning tashqarisida turadi.

**O'yin tavsifi.** O'yinchilar ko'zlarini yumib o'tiradilar, o'yinboshi esa doira atrofida aylanib yurib, sekingina bir bolani orqasida to'xtaydi. O'yinboshining yurishiga o'yinchilar quloq solib o'tiradilar. Orqasiga o'yinboshi kelib to'xtagan o'quvchi qo'lini ko'tarishi va biron o'yinchiga aytishi kerak. Agar o'yinchi to'g'ri topsa o'yinboshi bilan o'rin almashadi. Agarda topa olmasa o'yin yana davom etadi.

**O'yin qoidasi:**

1. O'yinboshi davrani aylanib yurganida ko'zlarini yumib turishlari kerak.



2. Ko'zini ochib turgan bo'lsa tutilgan hisoblanadi.
3. Agarda o'yinchini tanib olsa, o'yin qaytadan davom etdai.

### “GULDOR TO'P” O'YINI

**Pedagogik vazifasi.** Tezkorlik , chaqqonlikni rivojlantirish. To'pni bir-biriga oshirishni o'rgatish.

**Psixologik ahamiyati:** O'quvchilarda psixologik ( diqqat tezkor fikrlash va psixofiziologik ( abjirlik, tezkorlik ) xususiyatlarini shakllantirish.

**Tayyorgarlik ko'rish.** Hamma o'yinchilar chordana qurib o'tiradilar, o'yinboshi saylanadi. U doira tashqarisida turadi. Maktab sharoitida rangli to'plardan foydalanish ma'qul. To'p o'yinchilarning birining qo'lida bo'ladi. O'yinboshi 1-2 metr masofada turadi.

**O'yin tavsifi.** O'qituvchining signalidan keyin to'pni doira bo'ylab (kelishib olinganiga ko'ra goh o'ngdan, goh chapdan ) bir-birlariga uzatib boshlaydilar. O'yinboshi doira tashqarisida yugurib o'tib yonidagi sherigiga uzatib ulgurmagan o'yinchini petna qilishga harakat qiladi. O'yinchilar to'pni tezroq oilshga harakat qilib qo'llarini cho'zib turadilar. To'pni ushlagan o'yinchi petna qilingandan so'ng o'yinboshi bilan o'rin almashadi. Biron marta o'yinboshi bo'lmagan o'yinchi g'olib bo'ladi.

#### **O'yin qoidasi:**

1. To'pni 2-3 o'yinchidan oshirib uzatish man etiladi. Bu o'yin qoidani buzgan o'yinchini o'yinboshi bilan joy almashadi.
2. Doira hosil qilib o'tirgan o'yinchilar o'zboshimchalik bilan o'tirgan holatlarini o'zgartirmasliklari kerak.
3. O'yinboshi doira o'rtasida yugurib o'tishga ruxsat etilmaydi.

O'yinga ko'rsatma. Oyinni yanada murakkablashish maqsadida o'yinboshi ushlagan o'quvchini petna qilmasdan to'pni boshqa tomondan uzata boshlashi uchun signal berishi mumkin.

### “TEZ SAFLAN” O'YINI

**Pedagogik vazifasi:** Chaqqonlikni, sezgirlikni , diqqatni tarbiyalash.

**Psixologik ahamiyati:** O'quvchilarda psixologik(diqqat,sezgi) va psixofiziologik (abjirlik, chaqqonlik) xususiyatlarini shakllantirish.

**Tayyorgarlik ko'rish:** O'yinchilar ikki guruhga bo'linadilar va oralaridagi masofa 2-3 metrda ikkita qator bo'lib turadilar, qatordagi har bir o'yinchi qo'llarini o'zidan oldingi o'yinchining yelkasiga ohista qo'yadi.

**O'yin tasnifi:** Qatorda turgan bolalar o'qituvchining birinchi signalidan keyin har tomonga tarqalib ketadilar, ikkinchi signal bo'yicha hamma bolalar tezlikda yana qatorga kirishlari kerak. Birinchi bo'lib o'z joyiga tez aniq turgan qator g'olib hisoblanadi.

#### **O'yin qoidasi:**

1. Qatorda ketma-ket boy bilan turish kerak.
2. O'yinda ketma-ket qo'llar yelkada bo'lishi shart.
3. Qo'l yelkaga qo'ymasdan notekis turgan qator yutqazgan hisoblanadi.



Chordana qurib o'tirib to'pni boshdan oshirib uzatish

**Pedagogik ahamiyati:** O'yin estafeta topshrig'I bo'yicha harakatlanishda chaqqonlik va tekorlikni rivojlantiradi. Jamoa fikri bilan hisoblashish, o'rtoqlariga bo'ysinish o'yinning o'ziga xos harakati to'pni bosh ustidan oshirish va tez yugurish.

**Psixologik ahamiyati:** O'quvchilardan psixologik (diqqat, mantiqiy fikrlash,) o'zaro hamkorlik va munosabat ma'suliyat hissi) va psixi-fiziologik ( abjirlik, tezkorlik) xususiyatlarini shakllantirish .

**Tayyorgarlik ko'rish:** O'yinchilar teng 3 yoki 4 tomonga bo'linib, start chizig'I orqasida bir qatorda chordana qurib o'tiradilar, o'yinchilarning o'rtasidagi oraliq 70- 90 santimetr , komandalar orasidagi masofa 3-4 metrga teng bo'lishi kerak, har bir komandaning birinchi o'yinchisining qo'lida to'p bo'ladi. Barcha ishtirokchilar qo'llarini yuqoriga ko'tarib turadilar.

**O'yin tasnifi:** O'qituvchi signal bergandan keyin o'yinchilar to'pni boshlaridan oshirib keyingi o'yinchiga uzatadilar, qator oxiridagi o'yinchi to'pni olgach o'rnidan turib to'pni yana boshidan oshirib uzatadi. O'yin davomida o'yinchi qator oxiriga signaldan so'ng to'pni ilib olib o'rnidan turadi va o'ng tomondan yuguradi. Birinchi bo'lib tugatgan komanda o'yinda g'olib bo'ladi.

**O'yin qoidalari:**

1. Har bir o'yinchi to'pni bosh ustidan qo'ldan –qo'lga uzatishlari shart
2. To'pni bir o'yinchini tashlab ikkinchisiga oshirish man etiladi.
3. To'pni tushurib yuborgan o'yinchi to'pni o'zi olib o'sha joydan oshirish zarur